

**INGLIZ TILIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI
SHAKLLANTIRISHDA EFL O'QUVCHILARI DUCH KELAYOTGAN
MUAMMOLAR**

Sadolat Uralova

SamDPI Student, Uzbekistan, Samarkand

Supervisor: Xasanov Akrom Anvarovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan o'rganuvchilarning tinglab tushunish (listening) ko'nikmasini shakllantirish jarayonida duch kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Tinglab tushunishdagi asosiy to'siqlar yoritiladi.

Abstract. This article analyzes the problems faced by students who learning English as a foreign language during the process of listening skills. The main obstacles in listening skills are highlighted.

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы, с которыми сталкиваются студенты, изучающие английский язык как иностранный, в процессе формирования навыков понимания на слух. Выделены основные препятствия на пути понимания на слух.

Kalit so'zlar: EFL o'quvchilari, tinglab tushunish, lug'at boyligining yetishmasligi, idiomatik iboralar.

Bugungi kunda EFL o'quvchilarining ko'pchiligi aynan tinglab tushunish ko'nikmasida bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Chunki, tinglab tushunish faqatgina tovushlarni eshitish emas, balki ularni tezkorlik bilan ma'nosini anglash, vaziyatga mos tushuncha hosil qilishni ham talab etadi. EFL o'rganuvchilari uchun tinglab tushunish jarayoni bir nechta sabablarga ko'ra murakkablashadi:

- Fonetik jarayondagi farqlar, masalan, Ingliz tilidagi tovushlar o'zbek tilidagi tovushlarga umuman mos kelmasligi bu jarayonni qiyinlashtiradi.

- So'z qisqarishi yoki qo'shilishi: "going to" so'zini "gonna", "want to" so'zini "wanna" deb qisqartirilishi tinglovchilar uchun tanish bo'lmagan shakllar bo'lib, tez tushunishga sezilarli darajada halaqit beradi.

- Lug'at boyligi yetishmasligi: lug'at boyligi kam bo'lgan o'quvchi tinglab tushunish ko'nikmasida juda katta qiyinchiliklarga duch kelishi turgan gap. Chunki, tinglab tushunish uchun berilgan matnda notanish so'zlarning ko'pligi umumiy mazmunni tushunib olishga

to'sqinlik qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, matnni tushunish uchun o'quvchi so'zlarning 90 foizini bilishi kerak ekan. [1]

•Sinonimlar ko'pligi: ingliz tilida juda ko'p sinonim so'zlar va ko'p ma'noli so'zlar mavjud. Masalan, "light" yorug'lik, yengil, oson, ranglar uchun och kabi ma'nolariga ega. Bu kabi so'zlar tinglovchi uchun matnni to'liq tushunmaslikma va noto'g'ri tarjima qilishga olib keladi.

•Idiomatik iboralar: ingliz tilida kundalik muloqot uchun juda ko'p idiomalar mavjud va bular tinglab tushunish qismida ham keng qo'llaniladi. Misol uchun, "hit the books" berilib dars qilish ma'nosini bildiradi. EFL o'quvchilari bu kabi idiomalarni, so'zma so'z tarjima qilib, ma'nosini tushunmay qolishadi. Bu esa matn mazmunini noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi.

•Kontekstga mos keladigan ma'noni ajrata olmaslik: ingliz tilida shunday so'zlar borki, o'quvchilar uning qaysi kontekstda qaysi ma'nosida kelishini bilishmaydi. Misol uchun, "book" so'zi birinchi ma'nosi kitob, ikkinchi ma'nosi esa biron narsani buyurtma qilish. Tinglab tushunish vaqtida kontekstga mos keladigan ma'noni tezda topa olmaslik tinglovchini chalg'itad va undan keyingi savollarga ham javob topa olmaslik holatlarini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, EFL o'quvchilari ingliz tilida real muloqot muhiti bo'lmaganligi uchun tinglab tushunish ko'nikmasi yaxshi darajada rivojlanmay qoladi. So'nggi yillarda bir qator olimlar tinglab tushunish masalasini alohida o'rganib, bu ko'nikmani rivojlantirishning samarali, foydali va kerakli metodlari haqida tadqiqotlar olib borishgan. Ularning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tinglab tushunish o'quvchilarning umumiy til kompetensiyasini oshirishda muhim rol o'ynashi aytib o'tilgan. [2] Chunki, o'quvchi tinglab tushunishni yaxshi o'rganmasdan turib, na uzoq muddatli suhbat qila olishi, na akademik matnlarni to'liq tushuna olishi, na bilgan so'zlarini amalyotda qo'llay olish mumkin emas. Bundan tashqari, ko'plab til organuvchila ingliz tilini yozma shaklda yaxshi tushuna olishsa ham, eshitilgan nutqni tushunishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Yozma nutq qanchalik yaxshi bo'lmasin tinglab tushunish ko'nikmasi muhim rol o'ynaydi. Darajasi quyi bo'lgan ko'plab tinglovchilar ingliz tilidagi auditorlarni tabiiy tezlikda eshitishni xohlashadi. Voice of America's Learning English (<https://learningenglish.voanews.com/>) saytida sodda ingliz tilidagi yangiliklar mavjud. Yangiliklar ham audio, ham yozma matn shaklida berilgan audio esa tabiiy tezlikdan ancha sekin. [3]

Keyingi masala esa, tinglovchilar uchun audiodagi matn qiziqarli bo'lmasa, tinglovchi audioni oxirgacha eshita olmaydi, zerikish paydo bo'ladi. Yuqorida keltirilgan muammolarga yechim sifatida ko'p tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Yaqin

yillarda EFL o‘rganuvchilari uchun foydali, samarali yechimlarni taqdim etishi ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, EFL talabalarining tinglab tushunish ko‘nikmasidagi muammolarini hal etish talabalarning nafaqat ingliz tilini o‘zlashtirishiga, balki global axborot oqimidan foydalanish, xalqaro muloqotda faol ishtirok etishi uchun imkoniyatlar eshigini ochadi.

References:

- 1 Nation, I.S.P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
- 2 The Role of Listening Skills in Developing Communicative Competence: A Case Study in the Language Classroom – Yildiz & Albay
- 3 <https://www.britishcouncil.uz/exam/ielts/blog/listening-in-english>